



O'zbekiston san'at arbobi rejissyor Bahodir Yo'ldoshevning ijod yo'llariga chizgilar

Z.Abdunazarov

**QDU, "San'atshunoslik" kafedrası
o'qituvchisi**

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston san'att arbobi rejissyor Bahodir Yo'ldoshevning hayot va ijod yo'llari haqida hikoya qilinadi. 1974 yilda uni Milliy teatrga bosh rejissyori etib tayinlashi, Bahodir Yo'ldoshevning zamonaviy mavzudagi spektakllaridagi ijodiy prinsiplari haqida ma'lumotlar keltirildi.

Kalit so'zlar:

Teatr, san'at, pyesa, sahna asari, rejissor, spektakl, sahna.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotida yangi badiiy tafakkur egalarining o'rni beqiyosdir. Bahodir Yo'ldoshev ana shunday ijodkorlardan biri bo'lib, uning asarlarida hayotiy haqiqat va inson ruhiyati chuqur badiiy talqin etiladi. Buyuk rejissyor Bahodir Tursunovich Yo'ldoshev 1945 yil 7 sentyabrda Kattaqo'rg'on shahrida ijodkorlar oilasida tavallud topgan. Ta'kidlash joizki, u teatr sahnasi jozibasini juda yoshlik paytidan sezdi va teatrga maftunlik va muhabbat hissi o'sha chog'larda shakllandi. Yoshlik chog'idan teatr ishchilariga: rekvizitorlarga, sahna yorituvchilariga, butaforlarga, sahna mashinistlariga yordam beraboshlab sahnani ipidan ignasigacha o'zlashtirib oldi.

1974 yilda uni Milliy teatrga bosh rejissyori etib tayinlashdi, u yerda tinmay ishladi, har mavsumda uch-to'rttadan spektakllar chiqardi. U o'z lavozimining naqadar ma'suliyat talab qilishini anglardi lekin bu narsa uni qo'rqitmas edi. Bosh rejissyor sifatida 10 yillik faoliyati davomida u qirqqa yaqin turli janrlar va mavzularda spektakllar yaratdi. Va shu bilan u falsafiy fojea, ijtimoiy-psixologik pyesa, satirik komediya, buffonada kabi asarlarni yarata olishini isbotladi. O'ziga fikrdosh bo'lgan aktyorlar guruhini tarbiya qildi, ular jumlasiga H.Nurmatov, E.Komilov, T.Mo'minov, A.Rafiqov, E.Nosirov, S.Yunusova va ko'plab boshqalarini kiritishimiz mumkin.

Milliy teatr tajribasi ijodkor uchun jonli va yorqin meros sifatida xizmat qilishi, zamonaviy teatr jarayonini oziqlantiruvchi manba ekanligini e'tirof etish B.Yo'ldoshevning o'ziga xos ijodiy yondashuvini belgilab berdi. Teatr milliy dramaturgiya laboratoriyasi ekanligini anglagan holda, o'zining ijodiy amaliyotida B.Yo'ldoshev o'zbek teatrining atoqli namoyandalari M.Uyg'ur, Ye.Bobojonov,

A.Ginzburg, T.Xo'jaevlarning an'analarini sahna san'atida izchil davom ettiradi va rivojlantiradi. Ayni uning Milliy teatrdagi faoliyat ko'rsatgan davrida qator taniqli yozuvchilarimiz o'zlarining yetuk dramaturg ekanliklarini namoyon qilishdi: S.Ahmad, A.Muxtor, T.To'la, P.Qodirov, O'Umarbekov, M.Bobojev. Ular bilan qilingan sarmahsul ijod natijasida sahnaga bir qator yangi spektakllar chiqdi va ular teatrimiz hayotida yorqin voqea bo'lib qolishdi. Bu spektakllarda rejissyorning o'ziga xos ijodiy dastxati namoyon bo'la boshladi. Shu bois S.Ahmad asari asosida sahnalashtirilgan mashhur "Kelinlar qo'zg'oloni" spektaklini yaratishda rejissyor va dramaturgning hamkorligini eslab o'tish o'rinlidir, ushbu spektaklning yozib olingan televizion versiyasi hamon tomoshabinlarni televizor ekranlariga jalb qilib kelmoqda. "Ma'naviyat va ma'rifat" telekanalida B.Yo'ldashevning 90-yillarda yozib olingan "Iskandar" (A.Navoiy), "Maysaraning ishi", "Paranji sirlari" (Hamza) kabi spektakllari namoyish qilinmoqda.

Mustaqilligimizning ilk yillarida mamlakatimizda ijtimoiy siyosiy taraqqiyotning yangi davri boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Mustaqil deb e'lon qilindi. Jamiyatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat barpo etishdek oliyanob goya e'lon qilindi. Yangi jamiyat kanday bo'lishi adabiyot san'at namoyondalariga ko'p jihatdan bogliq buladi. Rejissyorlarning teatrdagi ijodiy muhitini, uning hayot bilan aloqasini o'z yo'li va qiyofasini tanlab, shakllantirib olish yo'lidagi urinishlari bexuda ketmadi. Bu kabi yangilanish davrida o'zligini anglash va milliy kahramonlarni izlayotgan jamiyat uchun ayni davrda Bahodir Yo'ldashev odamlarning ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlarga hamohang qaxramonlar qismati xaqida xikoya qiluvchi spektakli bilan labbay deb javob berdi. Mustamlaka davrdan keyingi ilk pallada o'zbek millatiga o'z otasi mehribon onasi singari milliy qahramonini tanitishdek bahtga muyassar bulgan ijodkordir. Bahodir Yo'ldoshev "Checha" spektaktli orqali o'zbek halqini naqadar oqibatli, bolajon halq ekanligini ularning asl zurriyodlari ajdodlari qaylarga va kimlarga borib taqalishini chor Rossiya tuzumida yetimush yil cho'lu-biyobonlarning bir chetida, o'tovlari ichida barcha tarixlarni doston qilib yozib keljak avlodlarga qoldirish niyatida yashab kelayotgan Checha timsoli orqali o'zbek millatini urf odatlari zamonbop hammabobligini hamda shu odatlar negizida naqadar millatimiz momolari zukkoligini namoyon etdi.

Bahodir Yo'ldoshevning zamonaviy mavzudagi spektakllaridagi ijodiy prinsiplarini kuzatar ekanmiz, Toshxo'ja Xo'jaev o'zbek teatri san'tiga olib kirgan aktyorlarni tabiatan psixofizik manbalari asosida rolga tanlash, spektakl ustida ishlash jarayonida o'zi ham, aktyorlar rejissyor chizig'idagi improvizatsiya holatida bo'lishi, berilgan shart-sharoitlarni mantiqiy rivojini his etgan holda kechinma san'atida yashash tamoyillarini o'ziga xos yangi qirralarda davom etayotganini ko'ramiz. Ayniqsa, Toshxo'ja Xo'jaevning Abdulla Qahhorning "Ayajonlarim", Erkin Vohidovning "Oltin devor" kabi yorqin, milliy ruhda yaratilgan spektakllari rejissurasiga xos bo'lgan an'anaviy o'zbek teatriga xos uslub va tamoyillarini zamonaviy spektakllarga hamohang ravishda singdirish, milliy badiiyat yaratish tajribalari Bahodir Yo'ldoshevning "Checha" spaktaklini yaratishida rejissyor tanlagan, tavsiya etgan aktrisa O'zbekiston halq artisti Aziza Begmatovanning ijrosi tomoshada muhim poydevorga aylandi va jozibadorligini oshirgan.

Spektaklni sahnalashtirish jarayonining birinchi kunida Bahodir Yo‘ldoshev jamoani yeg‘ib birinchi savoli shu bo‘ldiki “Checha” iborasi nima degani deya aktyorlarni savolga tutdi, ko‘rinib turibdiki bu kabi iborani unutib yuborganlariga ko‘p yillar bo‘lgan aktyorlar biroz o‘ylanib qolishdi shunda Bahodir Yo‘ldoshev “Checha”ni kimligi uning hayotdagi o‘rni haqida tushuntirib o‘tgan, qarangki o‘z-o‘zidan mustaqil millatimizning yorqin siymosi biz unutib qo‘yayotgan otabobolarimizni urf-odatlarini milliy bahrikengligimizni birgina shu “Checha” timsoli bilan qaytarib berdi. Spektakl yaratilish jarayonida rejissyor har bir sahna va ko‘rinishlarga o‘zgartirishlar kiritadi, jarayon diqqat-e’tiborini asarning til boyligi, shiradorligiga badiiy talqini uchun o‘ta muhim bo‘lgan har bir personajning o‘ziga xos til xarakteristikasi muhimligiga qaratadi. Bu avvalambor har bir aytiladigan so‘z va dialoglarni obraz xarakteri, tashqi ko‘rinishi, xatti-harakatiga mos, qisqa, ifodalililigi, sermazmun, yumor va hazil mutoyibaga boy musiqali ohangda qurilishi spektaklning g‘oyaviy-badiiy yaxlitlik ifodaviy vositasiga aylandi, spektakl ta’sirchaligini kuchaytiradi. Bu borada rejissyor aktyorlarga improvizatsiya uchun keng imkoniyat yaratdi barcha qahramonlar asar so‘ngida “Checha” atrofiga jamul-jam bo‘lishi eng muhim omil deb hisoblaydi.

Spektaklning muvaffaqiyati rejissyor va rassomning asarga xos yangi shakl shamoil, oddiy kompozitsion yechim topa olgani, sahnaviy bezaklarining muhit va makonning mohiyatiga mosligi, rejissyorning ijrochilik uslubida xalq an’anaviy teatrining azaliy, bo‘rtirma yo‘nalishidan keng foydalangani, obrazlar xarakterlarining yorqin va ifodaviyligi bilan belgilanadi. Spektaklning mazmunan va shaklan busbutunligini yaratishda rejissyor, hayotiy voqelik va hodisalarni, vaziyat va holatlarni kulgili, tasirchan bo‘lishida, har bir obrazni umumlashma tipik xarakterini yaratishda, aktyorlar e’tiborini faqat o‘ziga hos xatti-harakat, kiyim kechak, ovoz va tallafuzini topish, sahnada kechayotgan voqealarga nisbatan munosabatni bildirishda imo ishoralar topishga qaratadi. Rejissyor spektaklda, xalq maydon teatriga xos ochiq o‘yin, xarakterlar tashqi qiyofasida kulgilikning oshkora shakllaridan o‘rinli foydalanadi. Musiqa, pantomima, raqs va katta kichik detallar obrazlarni individual qirralarini ta’sirchanligini oshiradi. Bir so‘z bilan aytganda zamon bilan hamnafas rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev bugun tomoshabinga nima va qanday spektakl kerakligini qalban his qilgan ijodkor edi. O‘ylaymanki bugungi kunda ham ushbu “Checha” spektaklini teatr repertuariga qayta kiritish va bugungi kun tomoshabinlariga taqdim qilish maqsadga muvofiqdir.

Bahodir Yo‘ldoshev tanlagan hayot tarzining ma’nosi ham — repetitsiyalardir.

Faqatgina repetitsiya mo‘jiza yaratadi — deb e’tiqod bilan ta’kidlaydi u. Repetitsiyalarga bo‘lgan munosabatlar aktyorlarni, teatr san’atiga aloqador insonlarning o‘zlari tanlagan hayot tarzlarini shakllantiradi. Repetitsiyaga bo‘lgan muhabbat esa teatr san’atidagi hayotingizni yoqimli va umriboqiy hayotga alantirishi mumkin.

Bahodir Yo‘ldoshev ijodiy faoliyati zamonaviy o‘zbek adabiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning asarlari inson ruhiyati, jamiyat muammolari va hayot falsafasini badiiy jihatdan teran yoritishi bilan ajralib turadi. Yozuvchi o‘ziga xos uslubi orqali adabiyot rivojiga munosib hissa qo‘shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev B. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent, 2019.
2. Karimov N. *Zamonaviy o'zbek adabiyoti*. – Toshkent: Fan, 2018. – 37-bet.
3. Qo'chqorov R. *Badiiy tafakkur masalalari*. – Toshkent, 2017. – 76-bet.
4. Umurov H. *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent, 2015. – 98-bet.
5. *O'zbek adabiyoti tarixi (XX–XXI asrlar)*. – Toshkent, 2020. – 201-bet.
6. Umidaxon Boltaboyeva. "Qahramon qiyofasini yaratishda Stanislavskiy ta'limotining mohiyati". *Oriental Art and Culture Scientific Methodical Journal*. Volume 7. Issue 1. January 2026. 122-126 - betlar.